

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



O'ZBEK TILI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 - Muhandislik, Ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	710 000 - Muhandislik ishi
Ta'lim sohasi:	720 000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi:	60710500 - Energetika (Issiqlik energetikasi)
Ta'lim yo'nalishi:	60710600 - Elektr energetikasi (elektr ta'minoti)
Ta'lim yo'nalishi:	60720700-Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)
Ta'lim yo'nalishi:	60721800 - Neft va gaz ishi (Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish)

Qarshi-2022

“O‘zbek tili” fani dasturi

Fan (modul) kodi	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 1-2	ECTS krediti Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofig
Fan (modul) turi majburiy	Ta‘lim tili rus		Haftalik dars soati Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofig
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta‘lim	Jami yuklama
O‘zbek tili	Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofig	Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofig	Ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofig

I. Fanning mazmuni

1. Fanning maqsadi va vazifalari.

“O‘zbek tili” fani nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarining 1 kurslariga mo‘ljallangan bo‘lib (1-2 semestr), egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, madaniy dunyoqarashning zaruriy me‘yorlarini asoslovchi fanlardan biridir.

Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarining o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, ularning og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta‘minlashga erishishdan iborat.

Fanning vazifasi nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish; og‘zaki va yozma nugda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish; ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish; sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Ta‘lim berish natijalari:

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

O‘zbek tili imkoniyatlaridan amalda to‘g‘ri foydalanish kompetentsiyasiga, o‘zbek tilini sohada qo‘llash bo‘yicha tasavvur va bilimiga ega bo‘lishi;

O‘zbek tilida sohaga oid atamalami tushunish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo‘llay olish jarayonlarining xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

Sohaga oid matnlar bilan o‘zbek tilida tanishish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, tizimli tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

3. Fan bo‘yicha talabaning malakasiga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar “O‘zbek tili” fanini o‘rganish jarayonida quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

- “O‘zbek tili” dan egallagan bilimlarini mustahkamlash;
- tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o‘zbek tilidan yuqori darajada og‘zaki va yozma nutqiy savodxonligini ta‘minlashga erishish;
- og‘zaki va yozma nutqda o‘zbek tilining grammatik qoidalarini qo‘llay olishi, o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘zbek tilida maqola, risolalar tayyorlashda lug‘atlardan foydalana olish;
- so‘zlarni o‘rinli qo‘llay olishi, o‘qish va keyingi mehnat faoliyati jarayonida o‘zbek tilida muloqotga kirisha olish, yetarli yozma va og‘zaki savodxonlikka ega bo‘lish.

Shu nuqtayi nazardan dastur o‘qituvchi va talabalar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi, bular mutaxassisning kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo‘lgan nutqiy mavzularda ixtisoslikka oid turli nutq uslublari matn tuza olish malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Unga ko‘ra, muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish ixtisoslik doirasida og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, turlicha turdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini o‘stirish vazifasi qo‘yilgan.

II. Ta‘lim berish usullari:

- topshiriqlar asosida amaliy ish jarayoniga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- bahs-munozara;
- loyihalar ustida ishlash;
- mustaqil o‘rganish;
- taqdimot;
- yozma portfoliyo tuzish;
- rolli o‘yinlar.

III. Asosiy qism (Amaliy mashg‘ulot)

1. **Mavzu: O‘zbekiston - yagona vatan.** Mustaqil O‘zbekiston. O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rni.

2. **Mavzu: O'zbek tili - davlat tili.** Davlat tili tushunchasi. Til va jamiyat. O'zbek tili va davlat qonunlari.
3. **Mavzu: Til va yozuv masalalari.** Yozuv haqida umumiy tushuncha. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. Grafika. Orfografiya. O'zbek tili imlo qoidalari.
4. **Mavzu: Milliy qadriyatlar - millat iftixori.** O'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati. Milliy urf-odatlar. O'zbek udumlari. Mehmondo'stlik. O'zbek tilida so'z yasalishi.
5. **Mavzu: Tarix va zamonamiz.** Tariximizga oid manbalar. Tarix tilga kirganda. O'zbekistonning qadimiy shaharlari. Tarixiy obidalar. Tilning leksik qatlamlari.
6. **Mavzu: Ulug' ajdodlarimiz.** Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi. Beruniyning jahon ilmi qo'shgan hissasi. Til va terminologiya. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari.
7. **Mavzu: Vatan va vatanparvarlik.** Vatan tuyg'usi. Xotira va qadrlash - insoniylik belgisi. Tilning lug'at tarkibi. So'z, atama va termin haqida ma'lumot. O'z va o'zlashgan qatlam. Ijtimoiy-siyosiy leksika.
8. **Mavzu: Kelajak bilimlil yoshlar qo'lida.** Yoshlarning yutuqlari. Yoshlar - innovatsion g'oyalar tashabbuskori. Iqtidorli yoshlar — yurt kelajagi. Texnika sohasiga oid terminlarning yasalishi.
9. **Mavzu: Zamonaviy dunyoda ta'lim.** Ta'lim va zamon. Dunyoda tan olingan ta'lim tizimlari. Sohaviy teminlar va ularning qo'llanilishi.
10. **Mavzu: Adabiyot - ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba.** O'zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
11. **Mavzu: Kitob mutolaasi.** Alisher Navoiy nomidagi kutubxona. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. Frazologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.
12. **Mavzu: Qatag'on qurbonlari.** Jadidchilik harakati. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.
13. **Mavzu: Ommaviy axborot vositalari.** Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati. Tezkor axborot. Internet. Axborotdan unumli va o'rinni foydalanish. Publististik uslub va uning xususiyatlari.
14. **Mavzu: O'zbekiston va jahon.** O'zbekistonning xalqaro aloqalari. O'zbekiston a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar. BMT va xalqaro burchlar. Rasmiy-diplomatik uslub va uning xususiyatlari.
15. **Mavzu: XXI asrda innovatsiyalar.** Inson qo'li bilan yaratilgan meros. Fan-texnika taraqqiyoti. Fan va amaliyot. Sohalardagi innovatsiyalar haqida ma'lumot. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
16. **Mavzu: Texnik matnlar ustida ishlash.** Matn va uning turlari. Mikromatn va makromatn.
17. **Mavzu: Davrimizning global muammolari.** Insoniyat oldida turgan global muammolar va ularning yechimi to'g'risida. Ekologik muammolar. Tabiatni asrash, toza ekologik muhit mas'uliyati. Maqola va uning turlari.

18. **Mavzu: Inson va salomatlik.** Sog'liqni saqlash. Salomatligingiz o'z qo'lingizda. Shahsiy gigiyena - salomatlik garovi. Reportaj tayyorlash.
19. **Mavzu: Huquqiy madaniyat.** Konstitutsiya - hayotimiz qomusi. Inson huquqlari - oliy qadriyat. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.
20. **Mavzu: O'zbekistonda oliy ta'lim.** O'zbekistonning ta'lim tizimi. O'zbekistonning oliy o'quv yurtlari. Universitetlar. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar.
21. **Mavzu: Ilm maskanimiz hayotidan.** Bizning universitet. Universitetimiz tarixi. Universitet fakultetlari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
22. **Mavzu: Bo'lajak kasbim.** Muhandislik kasbi, Mutaxassislik tarixi. Kasb mashhaqqatlari. Matn va uning ko'rinishlari. Morfologiya haqida ma'lumot.
23. **Mavzu: Ilmiy-texnik matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari.** Tarjima mahorati. O'zbek tarjima maktabi. Tarjima qilish jarayonida lug'atlardan foydalanish.
24. **Mavzu: Ustoz maktabi.** Ustoz-shogirdlik an'anasi. Ustoz otangdan ulug'. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.
25. **Mavzu: Hayot mening tasavvurimda.** Oila - jamiyat tayanchi. Komil insonni tarbiyalashda oilaning ahamiyati. O'zbek oilasi. Yoshlarning hayotga munosabati va qiziqishlari haqida. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.
26. **Mavzu: Abdulla Qodiriyning o'tkan kunlari.** "O'tkan kunlar" asari. "O'tkan kunlar" asarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. Badiiy tasvir vositalari.
27. **Mavzu: Kasbim tarixi.** Islom Karimov - istiqbol asoschisi. Texnika sohasidagi yetuk mutaxassislar. Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birliklarning berilishi.
28. **Mavzu: Iqtidor va mehnat.** Qadimgi ilm maskanlari. Bag'dod akademiyasi. Iqtidorning namoyon bo'lishi. Matnga so'z va termin tanlash.
29. **Mavzu: Yetuk mutaxassis.** Soha olimlari. Ularning O'zbekiston ilm-faniga qo'shgan hissasi. Akademik Habib Abdullayev. Matn tahlili va tahriri.
30. **Mavzu: "Ommaviy axborot vositalari".** Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.
31. **Mavzu: Sharq akademiyalari.** Xorazm Ma'mun akademiyasi. Sharq olimlarning jahon ilmi qo'shgan hissasi. Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.
32. **Mavzu: Ilm sari yo'l.** Mirzo Ulug'bek. Mirzo Ulug'bekning aniq fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Taqiriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Ilmiy maqolaga taqiriz yozish.
33. **Mavzu: Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari.** Dastlabki ilmiy tadqiqot ishi yozish. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraz (havola, iqtibos, sitata, abzats).
34. **Mavzu: "Internet hayotimizda".** Internet madaniyati haqida matn tuzish. Annotatsiya matni va uning ifoda materialining xususiyatlari. Ta'lim

jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish. Mutaxassislikka oid terminlar ustida ishlash.

35. **Mavzu: Nutq odobi.** Nutq madaniyati. O'zbekona odob. Nutqni bayon qilish usullari. Jamoa orasidagi muloqot. Adabiy me'yor tushunchasi.

36. **Mavzu: San'at va ma'naviyat.** O'zbekiston san'ati. Dizayn. San'at va ma'naviyat uzviyligi. Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari.

37. **Mavzu: Muzeylar o'tmish va kelajak orasidagi ko'prikl.** Muzeylar tarixi. O'zbekiston muzeylari. Temuriylar davlati tarixi muzeyiga sayohat. Soha muzeylari.

38. **Mavzu: Men sevgan badiiy asar.** Badiiy asar haqidagi taassurotlarim. Abdulla Qodiriyning hikoya va yumoristik asarlari mutolaasi. Badiiy tasviriy vositalar.

39. **Mavzu: Iqtisod va hayot.** Iqtisodiy munosabatlar tarixidan. Iqtisodning inson hayotidagi ahamiyati. Buyuk ipak yo'li. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.

40. **Mavzu: Ish yuritish tili va uslubi.** Texnika sohasiga oid ish yuritish tili va terminlari. Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. So'z birkimasi.

41. **Mavzu: Qadimda muhandislik.** Muhandislik faoliyati turlari. Hujjat turlari va ularning xususiyatlari. Gap. Gap turlari.

42. **Mavzu: O'zbekiston sanoati.** O'zbekistonning yirik sanoat korxonalari. O'zbekiston sanoatining kelajagi. Gapning bosh bo'laklari. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari.

43. **Mavzu: Hujjatchilik tarixi.** O'zbekistonda qadimgi davlatchilik va ularda ish yuritish. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.

44. **Mavzu: Hujjatchilik va ish yuritish.** Ularning turlari, tuzilishi va eng muhim tarkibiy qismlari. Farmoyish hujjatlari.

45. **Mavzu: Texnik hujjatlarni yaratish va yozish.** Hujjatchilik va adabiy til me'yorlari. Hujjatlarni to'g'ri yozish va to'ldirish. Texnik hujjatlarni to'g'ri va savodli tuza olish. Sohaga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar multimeidiya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun kabi davlat hujjatlarida o'zbek tilini Davlat tili sifatida o'qitish masalalari bo'yicha ma'lumot to'plash.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5850-sonli farmonida belgilangan vazifalarning amalga bajarilishi masalalari.

3. O'zbek tilining imlo qoidalar. "XXI asr - texnologiyalar asri" mavzusida esse yozish.

4. O'zbek tilining leksik qatlami. Ilmiy-texnikaga oid o'zlashgan so'zlar.

5. O'zbek lug'atshunosligi. O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan texnikaga oid so'zlar izohi bilan tanishish.

6. Fan-texnika sohasiga (mutaxassisligi bo'yicha) oid maqolalar ustida ishlash

7. Texnika sohasi olimlarning hayoti va faoliyati bilan tanishish.

8. Nutq uslublari bo'yicha topshiriqlar bajarish.

9. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'otit turk" asaridagi atamalar.

10. Huttqiy ko'nikmalarni shakllantirish. Arastu va Abu Nasr Forobiyning notiqlik haqidagi qarashlari.

11. Nutqiy mahorat. Ma'ruza tayyorlash usullari.

12. Alisher Navoiyning tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan asarlari.

13. Fitratning tilshunoslikka bag'ishlangan asarlari.

14. Oybekning tilshunoslikka bag'ishlangan asarlari.

15. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda kitob mutolaasining ahamiyati haqida essi yozish.

16. O'zbek olimlari faoliyati aks etgan badiiy asarlar (O.Yoqubov "Diyonat", O. Usmonov "Girdob", P. Qodirovning "Olmos kamar" asarlari)ni mutolaa qilish.

17. Nutqiy kompetentlikka rioya qilish. Fan-texnika sohasi bo'yicha taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish.

18. Publisistik nutq uslubi. Fan-texnika sohasi bo'yicha e'lon qilingan OAV materiallari ustida ishlash.

19. Mutaxassislik tarixi bo'yicha referat tayyorlash va himoya qilish.

20. Mutaxassislikka oid terminlar ustida ishlash.

21. Tarjima mahorati. Ilmiy matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

22. Mutaxassislik bo'yicha taqdimot tayyorlash va namoyish etish.

23. Mutaxassislik bo'yicha ilmiy maqola tayyorlash ustida ishlash.

24. Mutaxassislikka oid ixtiyoriy ilmiy asarga annotatsiya tayyorlash.

25. Mutaxassislikka oid ixtiyoriy ilmiy asarga taqriz tayyorlash.

26. Mutaxassislik bo'yicha mavzularni yoritishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

27. Ixtisoslikka oid matnlar ustida ishlash.

28. Hujjatchilik tarixi. Ish qog'ozlari bilan ishlash.

29. Fan-texnika sohasidagi innovatsion yangiliklar haqida taqdimot tayyorlash va terminlarni tahlil qilish.

30. Ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish.

VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va fan uchun belgilangan nazoratning barcha shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, fanni o'zlashtirish.

VII. O'quv adabiyotlar hamda Internet axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik) – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 282 b.
2. Normatova Sh. Abdurahmonova M, O'zbek tili (darslik) – Toshkent: JIDU, 2014. – 92 b.
3. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G., O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalar uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
4. Husanova N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova I. O'zbek tili (o'quv qo'llanma) 2020.
5. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Maxmudov N. Ish yuritish. Toshkent, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston respublikasi vazirlari mahkamasi huzuridagi atamalari komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 40-son qarori.
3. Husanov N., Husanova M., Xo'jaqulova R., Yusupov E. "Iqtisodiyotda texnik yozuv". T. "Fan va texnologiya markazi", 2012. 152 b.
4. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. "O'zbek tili". T. TATU. "Aloqachi" 2019.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli)– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020
6. Sohaviy lug'atlar.

Elektron resurslar:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
3. www.ziyounet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

4. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

O'quv dasturi institut Uslubiy kengashi tomonidan ma'qullangan (Bayonnoma № <u>11</u> "<u>23</u>" <u>06</u> 2022-yil. O'quv dasturi institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan (Bayonnoma № <u>18</u> "<u>28</u>" <u>06</u> 2022-yil.	
Fan (модуль) uchun mas'ul: Beginimov O.T. - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f. d.	
Taqrizchilar: Jabborov X.J. - QarDU o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, f.f.d. Aminova Z.P. - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, p.f.n.	